

Samarqand viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Samarqand viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 34,1 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024-yil 1-iyul holatiga, birlik	2025-yil 1-iyul holatiga, birlik
Samarqand viloyati	34 347	34 124
Samarqand sh.	9 983	10 429
Kattaqo'rg'on sh.	1 182	1 102
<i>tumanlar</i>		
Oqdaryo	1 470	1 335
Bulung'ur	1 450	1 424
Jomboy	1 400	1 328
Ishtixon	1 640	1 484
Kattaqo'rg'on	1 692	1 616
Qo'shrabot	894	885
Narpay	1 171	1 110
Payariq	1 664	1 645
Pastdarg'om	2 483	2 605
Paxtachi	991	885
Samarqand	3 071	3 153
Nurobod	1 060	1 142
Urgut	2 596	2 468
Toyloq	1 600	1 513

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni](#)

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-iyunida 3,0 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025-yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 102 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 399 ta, boshqa xizmatlar 378 ta hamda sanoatda 340 tani tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024-yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2025-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Samarqand viloyati	3 935	2 958
Samarqand sh.	936	939
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar	120	60
Oqdaryo	137	124
Bulung'ur	183	146
Jomboy	137	114
Ishtixon	152	152
Kattaqo'rg'on	239	144
Qo'shrabot	103	81
Narpay	122	106
Payariq	145	126
Pastdarg'om	309	217
Paxtachi	133	85
Samarqand	682	230
Nurobod	142	123
Urgut	195	206
Toyloq	200	105

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)


[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025-yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 68,2 % ni tashkil qilib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan 0,8 % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YAHMdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 13 019,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 51,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bulung'ur tumani (99,1%), Oqdaryo tumani (96,2%), Poyariq tumani (97,9 %), Qo'shrabot tumani (94,7,%) va Urgut tumani (83,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 7 915,5 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 90,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 116,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kattaqo'rg'on shahri (100,0 %), Urgut tumani (97,7 %), Payariq tumani (99,0%) va Kattaqo'rg'on (98,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 10 663,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 59,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 130,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Nurobod tumani (93,8 %), Oqdaryo tumani (89,1 %), Narpay tumani (88,1 %) va Urgut (86,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 19 928,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kattaqo'rg'on shahri (99,9 %), Urgut (99,8 %), Paxtachi (99,4 %), Ishtixon (99,6 %) va Qo'shrabot (99,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarish hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarishdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 15 925,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 88,6% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 111,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Kattaqo'rg'on shahri (100,0%), Jomboy (99,3 %), Ishtixon, Narpay hamda Poyariq (99,2 %) va Oqdaryo (98,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 20 705,1 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 63,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 116,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Oqdaryo (80,8 %), Qo'shrabot (85,3 %), Narpay (83,9 %), Jomboy (80,3 %) va Ishtixon (81,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 216,5 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 41,8 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bulung'ur, Oqdaryo, Poyariq va Qo'shrabot tumanlarida – 100,0 %, Narpay tumanida – 98,2 %, Kattaqo'rg'on shahrida – 85,2 % va Urgut tumanida – 84,4% ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 445,2 million AQSH dollarini yoki jami importning 34,2 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Poyariq, Qo'shrabot tumanlarida – 100,0 %, Kattaqo'rg'on shahrida – 98,8 %, Ishtixon tumanida – 90,8 %, Oqdarto tumanida – 90,7 %, Narpay tumanida – 81,0 %, Urgut tumanida – 79,2 %, Kattaqo'rg'on tumanida – 76,6 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025-yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 88,4 % ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 80,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,3 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,2,% ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,5 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)


V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-iyunida 40,8% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyunida esa 46,6 % ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-iyunida nisbatan 5,8 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-iyunida 51,5 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyunida 48,3 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-iyunida 7,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 5,1 % ga pasaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-iyunida 59,1 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyunida 58,7 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-iyunida 36,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyunida 38,9 % yoki 2,8 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-iyunida 2,8,% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 2,4 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 48,9 % ni, qurilishda – 40,2,% ni va sanoat sohasida – 41,4,% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoat va qurilishda – 51,0 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 41,1 % ni va xizmatlar sohasida – 49,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish – 8,8 % ni, sanoat sohasida – 7,6 % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,1 % ni va tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoglar-bo-yicha-ulushi.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:
M.Suyarov
66 235-45-90 (3030)

Manzil:

